

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.01.2021.1.16.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**TOJIYEVA MAXLIYOXON JAHONGIR QIZI**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TURIZM SOHASINING IQTISODIY  
RIVOJLANISHINI STATISTIK BAHOLASH**

**08.00.06 – Ekonometrika va statistika**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление авторефераата диссертации доктора философии (PhD)  
по экономическим наукам**

**Doctor of philosophy in Economic Sciences (PhD) dissertation  
abstract content**

**Tojiyeva Maxliyoxon Jahongir qizi**

O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasining iqtisodiy rivojlanishini statistik baholash .....	3
---	---

**Тоджиева Махлиёхон Джаконгир кизи**

Статистическая оценка экономического развития сферы туризма в Республике Узбекистан.....	31
---	----

**Tajieva Mahliyakhan Jahangir kizi**

tatistical assessment of the economic development of the tourism sector in the Republic of Uzbekistan.....	59
---	----

**E’lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ List of published works.....	64
---	----

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.01.2021.1.16.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**TOJIYEVA MAXLIYOXON JAHONGIR QIZI**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TURIZM SOHASINING IQTISODIY  
RIVOJLANISHINI STATISTIK BAHOLASH**

**08.00.06 – Ekonometrika va statistika**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida  
B 2021.2.PhD/Iqt1684 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash web-sahifasida ([www.tsue.uz](http://www.tsue.uz)) va "ZiyoNet" axborot-ta'lif portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**G'oyibnazarov Bahodir Karimovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Maxmudov Nosir Maxmudovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Arzikulov Otobek Ali o'g'li**  
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.01.2021.1.16.03 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil "\_\_\_" kuni soat \_\_\_ dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239 01 49; faks: (99871) 2326992; e-mail: [info@tsue.uz](mailto:info@tsue.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239 01 49; faks: (99871) 2326992.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "\_\_\_" da tarqatildi.  
(2024-yil "\_\_\_" \_\_\_ dagi \_\_\_ raqamli reyestr bayonnomasi).

**S.K. Xudoyqulov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, i.f.d., professor

**B. Xajiyev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, i.f.d., professor

**U.V. Gafurov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbliji va zarurati.** Globallashuv sharoitida aholi daromadlarining o'sishi hamda xalqaro darajada harakatlanish imkoniyatlarining kengayishi natijasida turizm industriyasi jahon iqtisodiyotining eng istiqbolli tarmoqlaridan biriga aylanib bormoqda. Butunjahon turizm tashkiloti (UNWTO)ning statistik ma'lumotlariga ko'ra "turizm daromadlilik darjasini bo'yicha uchinchi, tovarlar va xizmatlar eksportida to'rtinchchi o'rinda, uning jahon yalpi ichki mahsulotidagi ulushi o'rtacha 10,4 foizni tashkil etmoqda"<sup>1</sup>. Turizm sohasi salohiyatidan samarali foydalanish orqali uning iqtisodiy rivojlanishini jadallashtirish o'z navbatida mazkur faoliyatni statistik baholash uslubiyotini takomillashtirish chora-tadbirlarining dolzarbligini namoyon etadi.

Jahonda turizm sohasini rivojlantirish, sifat darajasini oshirish, turizm xizmatlarini ko'rsatish hajmi, mamlakatlar iqtisodiyotiga qo'shayotgan hissasini ko'paytirishga qaratilgan qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Turizm kompaniyalarining samarali iqtisodiy strategiyalarini ishlab chiqish, ularning tashqi bozorlardagi raqobatbardoshligini oshirish mexanizmini yaratish, faoliyat yuritish samaradorligini statistik baholash va prognozlash, tizim boshqaruvini optimallashtirish, turizm xizmatlari samaradorligini oshirish uslubiyotini takomillashtirish, turizm xizmatlarini standartlashtirish va sifatini oshirish uchun jahon andozalariga mos statistik tasniflash, innovatsion strategiyalardan samarali foydalanish masalalari bu boradagi ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

Yangi O'zbekistonda milliy iqtisodiyotning strategik sektori sifatida turizmni jadal rivojlantirish uchun qulay iqtisodiy va tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlar yaratish, hududlarning ulkan turizm salohiyatidan yanada samarali foydalanishni statistik usullarda baholash, milliy turizm mahsulotlarini yaratishni ifodalovchi statistik ko'rsatkichlar tizimini ishlab chiqish, turizm sohasini statistik axborotlar bazasini kengaytirish masalalariga alohida e'tibor berilmoqda. Xususan, bu boroda 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida "turizm, transport, axborot-kommunikatsiya, jumladan, dasturiy ta'minotlar va boshqa xizmatlar eksportini 1,7 baravarga oshirish yoki 4,3 milliard AQSh dollariga etkazish, to'siqsiz turizm infratuzilmasini mamlakatning asosiy turizm shaharlarida keng joriy qilish. 2026-yilgacha turizm sohasida band bo'lgan aholi sonini 2 baravar oshirib, 520 ming nafarga etkazish, turizm va madaniy meros obyektlari infratuzilmasini rivojlantirish hamda 8 mingdan ortiq madaniy meros obyektlaridan samarali foydalanish bo'yicha davlat dasturini qabul qilish"<sup>2</sup> kabi vazifalar belgilab berilgan. Mazkur vazifalarning samarali amalga oshirilishi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar)ning statistik tasniflagichi tarkibiga turistlar sayohatini tashkil qilish, dam olish va sog'lomlashtirish xizmatlarini kiritish orqali turizm xizmatini sotib olish va iste'molining har bir bosqichida olingan daromadlarni real baholash va nazorat qilish jarayonlarini takomillashtirish, turizm

<sup>1</sup> [www.unwto.org](http://www.unwto.org) rasmiy sayt ma'lumotlaridan olingan.

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli farmoni. – [www.lex.uz](http://www.lex.uz)

sektorining asosiy ko'rsatkichlari tizimini kengaytirilgan holda tasniflash, soha faoliyati, darajasi va dinamikasini ifodalovchi integral ko'rsatkichlar tizimini ishlab chiqish, milliy iqtisodiyotning turizm sohasini strategik sektori sifatida rivojlantirishga ta'sir qiluvchi omillarni ekonometrik modellarni tuzish asosida baholash, turizm infratuzilmasi hamda turistik oqim hajmining iqtisodiy o'sishini jadallashtiruvchi ta'sirini baholash asosida turizmni YaIMdagi ulushi qo'shimcha o'sishining prognoz parametrlari ishlab chiqishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqot ishlarining dolzarbligini namoyon etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 15-yanvardagi PF-52-son "Turizm, madaniyat, madaniy meros va sport sohalarini yanada rivojlantirish uchun qo'shimcha sharoitlar yaratish to'g'risida", 2019-yil 5-yanvardagi PF-5611-son "O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2018-yil 3-fevraldaggi PF-5326-son "O'zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida", 2016-yil 2-dekabrdagi PF-4861-son "O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlari, 2023-yil 26-apreldagi PQ-135-son "Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori, 2017-yil 16-avgustdaggi PQ-3217-son "2018–2019-yillarda turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi.** Tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy hamda madaniy-ma'rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Iqtisodiy adabiyotlarda turizm bozori rivojlanishining turli jabhalariga xos nazariy va metodologik masalalari bir qator xorijlik olimlar tomonidan o'rganilgan. Xususan, S.Briggs, F.Kotler, J.Bouyen, J.Meykenz, A.Saak, G.Xarris, R.Kas, S.Akis, A.Atiyaman kabi olimlarning ilmiy ishlarida turizm statistikasi, turizm bozorida iqtisodiy strategiyani tashkil etish hamda amalga oshirishning nazariy va amaliy jihatlari ko'rib chiqilgan<sup>4</sup>.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlari olimlari V.I.Azar, V.S.Bogolyubov, V.A.Kvartalnov, N.I.Kabushkin, G.Ye.Papiryan, B.A.Romanov, V.B.Saprunova, V.K.Seninlar o'z ilmiy ishlarida turizm sohasida iqtisodiy

<sup>4</sup> Briggs S. Marketing v turizme. –K.: Znaniya-Press, 2005. -358 s.; Kotler F., Bouen Dj., Meykenz Dj. Marketing. Гостеприимство. Туризм: учебник для вузов. Второйе изданийе.-М.: ЮНИТИ – ДАНА, 2002. – 1063с.; Саак А.Е. Маркетинг в социально-культурном сервисе и туризме. Учебнойе пособийе. – СПб.: Питер, 2007. -480 с.; Харрис Г., Кас Р. Становлениие международного туризма в XXI веке. - М.: Финансы и статистика, 2006.; Akis S. (1998): A Compact Econometric Model of Tourism Demand for Turkey, Tourism; Management.; Athiyaman A. (1997): Knowledge Development in Tourism: Tourism Demand Research, Tourism Management.

strategiyani takomillashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratgan<sup>5</sup>.

Q.X.Abduraxmonov, A.F.Saidov, N.Tuxliyev, I.S.Tuxliyev, N.M.Abdusalomova, N.S.Ibragimov, O.K.Kim, A.N.Norchayev, B.Yu.Mirbabayev, M.Q.Pardayev, S.S.Ro'ziyev, N.R.Raximova, A.F.Saidov, B.Sh.Safarov, T.G.Abdullayeva, B.X.To'rayev, O.X.Xamidov, M.T.Alimova kabi o'zbekistonlik olimlarning ilmiy ishlarida O'zbekistonda turizm sohasini yanada rivojlantirish muammolariga, mehmondo'stlik industriyasini rivojlantirish nazariyasi va amaliyoti masalalariga keng e'tibor qaratilib, hududlarning turizm salohiyati, uni rivojlantirish omillari va boshqarish masalalari o'rganilgan<sup>6</sup>.

Shu bilan birga turizm sohasini ekonometrik tadqiqoti va prognozlari bo'yicha S.Gulyamov, T.Shodiev, N.M.Maxmudov, B.Berkinov, B.Salimov, O.Abdullaev va boshqalar ilmiy tadqiqotlarni amalgalash oshirganlar<sup>7</sup>.

Mazkur tadqiqotlarda turizm sohasi iqtisodiy strategiyasini ishlab chiqish va takomillashtirish borasida ma'lum darajada tajriba to'planganligiga qaramay, turizm sohasini milliy iqtisodiyotning strategik sektori sifatida rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni statistik baholash, istiqbollarini prognozlash, statistik ko'rsatkichlar tizimini takomillashtirish, turmahsulotni differensiatsiyalash va diversifikatsiyalash, jahon turistik xizmatlar bozoriga milliy turmahsulotlarni etkazishning strategiyalarini yaratish, "Buyuk ipak yo'li" brendi asosida turmahsulotni jahon bozoriga olib chiqish kabi masalalar etarli darajada o'rganilmagan. Yuqoridagi

<sup>5</sup> Азар В.И. Экономика и организация туризма. – М.: Экономика, 2003.– 322 с.; Боголюбов В.С. Экономика туризма: учеб.пособийе для студ.высш. учеб. Заведений. -М.: "Академия", 2005. – 192 с.; Кварталнов В.А. Современные концепции социального туризма. - М.: Наука, 1993.; Кварталнов В.А. Стратегический менеджмент в туризме: современный опыт управления. - М.: Финансы и статистика, 1999.; Кабушкин Н.И. Менеджмент туризма. - Минск: Новое знание, 2002.- 409 с.; Папирян Г.А. Международные экономические отношения: Маркетинг в туризме. - М.: Финансы и статистика, 2001.-160 с.; Романов А.А. Международный туризм: политика развития: Учебное пособие. - М., 1998.; Сапрунова В.Б. Туризм: эволюция, структура, маркетинг. - М., 1997.; Сенин В.С. Организация международного туризма: Учебник.- 2-е изд.- М.: Финансы и статистика, 2005.- 400 с.

<sup>6</sup>Абдурахмонов К.Х. Менеджмент туризма: учебное пособие. – Ташкент: Филиал FGBOU VPO "REU im. G.V.Plexanova", 2013. -248 s.; Abdusalomova N.M. Xalqaro turizmda marketing jarayonining rivojlanishi. – Iqt. fan. nomz. diss., Toshkent 2001.; Ibragimov N.S. O'zbekistonda xalqaro turizmni rivojlanirishda destinatsion menejment konsepsiyasini qo'llash.– Nomzod.diss., 2008.; Kim O.K. Marketing turistskix gostinichnyx uslug. – Diss. kand. ekon. nauk., 1999.; Norchayev A.N. Xalqaro turizm rivojlanishining iqtisodiy o'sishiga ta'siri. – Nomzod. diss., 2004.; Mirbabayev B.Yu. O'zbekiston turizmida marketing va uning globallashuv sharoitida takomillashuvi. Iqt. fan. nomz. diss., 2008.; Pardayev M.Q., Atabayev R. Turistik resurslarni tahlil qilish va baholash. –Samarqand. SamISI, 2006. – 137b.; Ruziyev S.S. O'zbekiston madaniy turizm bozori va uning istiqbollari. – Iqt. fan. nomz. diss. 2009.; Raximova N.R. Особенности формирования стратегии маркетинга на рынке туристических услуг. – Diss. kand. ekon. nauk., 2010.; Saidov A.F. Организационно-экономические механизмы управления туризмом Республики Узбекистан. – Diss. dok. ekon. nauk., 1994.; Tuxliyev N., Abdullayeva T. Менеджмент и организация бизнеса в туризме Узбекистана.- Т.: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2006. - 367 s.; Tuxliyev I.S., Hayitboyev R., Safarov B.Sh., Tursunova G.R. Turizm asoslari. Darslik.- Т. Fan va texnologiya, 2014.- 332 b.; Xamidov O.X. Выбор конкурентной стратегии предприятий на рынке туристических услуг Узбекистана. - Дисс. канд. экон. наук., 2006. Turayev B.X. Развитие организационно-экономических механизмов функционирования регионального туризма.- Дисс. док. экон. наук., 2011.; Alimova M.T. Hududiy turizm bozorining xususiyatlari va tendensiyalari (Samarqand viloyati misolida). – Iqt. fan. dok. Diss., 2017.

<sup>7</sup> S.Gulyamov., A.Abdullaev.Vaqqli qatorlarning statistik tahlili va mavsumiy tebranishlarni prognozlashtirish. – Т.: "Fan va texnologiyalar" nashriyoti, 2016- 305 bet.; T.Shodiev.Ekonometrika.Toshkent. "Adabiyot jamg'armasi.- TDIU 2005 y. 126 bet.; Н.Махмудов. Пути повышение роли денежные кредитной политики в обеспечение макроэкономические стабильности и экономического роста // Материалы республиканский научного конференции. Т.: ТДИУ, 2015. стр.23-29.; Б.Беркинов. У.К.Ахмедов.Uy xo'jaliklari rivojlanishi va oila daromadlarini oshirish istiqbollari. O'quv qo'llanma.-Т.: Fan texnologiyalari nashriyoti. 2013. 144 bet.; B.Salimov Yangi O'zbekistonni strategik maqsadlari va rivojlanishi// Innovatsion iqtisodiy jurnal №1-2023 yil. 14-19 bet.

muammolarni hal qilish zarurati mazkur dissertatsiya ishi mavzusini tanlash, uning maqsad va vazifalarini belgilashga asos bo‘lib xizmat qildi.

**Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Tadqiqot ishi Kadrlar malakasini oshirish va statistika tadqiqotlar institutining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** O‘zbekistonda turizm sektorining iqtisodiy faoliyatini statistik baholash va istiqbollarini prognozlash bo‘yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

globallashuv sharoitida turizm sektorini statistik o‘rganishning ilmiy-nazariy asoslarini o‘rganish;

turizm sohasini milliy iqtisodiyotdagi tutgan o‘rni va uning o‘ziga xos xususiyatlarini asoslash;

turizm sohasi iqtisodiy faoliyatiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni statistik baholash;

turizm korxonalarining statistik tahlil qilish hamda ular asosida ilmiy takliflar tayyorlash;

hududiy turistik klaster modelini shakllantirishning konseptual yo‘nalishlarini statistik baholash;

O‘zbekiston turizm infratuzilmasi hamda turistik oqimning iqtisodiy o‘sishini jadallashtiruvchi ta’sirini baholash asosida uzoq muddatli statistik prognozini amalga oshirishga qaratilgan ilmiy takliflar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida O‘zbekiston turizm sektoriga qarashli korxonalar va firmalarning iqtisodiy faoliyati olingan.

**Tadqiqotning predmetini** turizm sektorini statistik baholash va uning samaradorligini oshirish yuzasidan tashkiliy-iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv, qiyosiy va ekspert tahlil, empirik baholash, SWOT-tahlil, iqtisodiy-matematik usullar, ko‘p omilli statistik tahlil va prognozlash kabi usullar qo‘llanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

xalqaro tasniflashlarni inobatga olib, iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar)ning statistik tasniflagichi tarkibiga turistlar sayohatini tashkil qilish, dam olish va sog‘lomlashtirish xizmatlari kabi indikatorlarini kiritish orqali turizm xizmatini statistik hisobga olish tizimi va axborotlar bazasini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy takliflar ishlab chiqilgan;

turizm sektorining statistik ko‘rsatkichlar tizimini kengaytirilgan holda tasniflash maqsadida hamda kompleks statistik baholashni amalga oshirish uchun katta sonlar qonuniga asoslanib, soha faoliyati, darajasi va dinamikasini ifodalovchi integral ko‘rsatkichlar tizimi ishlab chiqilgan;

ko‘p omilli statistik tahlil usullaridan foydalanib, milliy iqtisodiyotning turizm sohasini strategik sektor sifatida rivojlantirishga ta’sir qiluvchi omillar ekonometrik modellarni tuzish asosida baholangan;

ekstensiv va intensiv omillarni hisobga olib, turizm infratuzilmasi hamda turistik oqim hajmining iqtisodiy rivojlanishga ta’sirini baholash maqsadida turizmni mamlakat iqtisodiy ko‘rsatkichlaridagi ulushi qo‘shimcha o‘sishining 2030-yilga

qadar statistik prognoz parametrlari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

jahon bozorida turizm sektorining raqobatbardoshligini ta'minlashga qaratilgan nazariy-metodologik va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan;

turizm sektori iqtisodiy samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlarni baholash bo'yicha ilmiy takliflar ishlab chiqilgan;

tarmoq korxonalari mahsulotining jahon bozoridagi xaridorgirlilik darajasini oshirishga ta'sir ko'rsatuvchi omillar, mezonlar, tamoyillar hamda ko'rsatkichlar tizimi statistik baholangan;

turizm sohasini milliy iqtisodiyotning strategik sektori sifatida rivojlantirishda ushbu faoliyatni nazorat qiluvchi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning (tovar, ishlar, xizmatlar) statistik tasniflagichida aks etishi bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot ishida qo'llanilgan metodologik yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, axborot bazasining rasmiy manbalardan, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi hamda Turizmni rivojlantirish qo'mitasining statistik ma'lumotlaridan olingani hamda tegishli xulosa va takliflarning amalda sinovdan o'tkazilganligi, olingen natijalarning vakolati davlat tuzilmalari tomonidan ma'qullanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dissertatsiyada ishlab chiqilgan nazariy va metodologik asoslar jahon xo'jaligining globallashuvi sharoitida respublikada turizm sektorining samarali faoliyat olib borishiga, milliy turizm mahsulotining jahon bozorida raqobatbardoshligini statistik baholashda, shuningdek, O'zbekiston Respublikasida turizm faoliyati bilan shug'ullanuvchi muassasalar o'z faoliyatini hisob-kitoblarini takomillashtirishga doir amaliy tadbirlarni ishlab chiqishda, qisqa va uzoq muddatlarga mo'ljallangan iqtisodiy rivojlanish strategiyalari va dasturlarini tuzishda keng foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan takliflar va amaliy tavsiyalardan respublikada turizm tarmog'ini samarali rivojlantirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar majmuuni ishlab chiqishda, shuningdek, iqtisodiyot yo'nalishidagi oliy o'quv yurtlarida "Tarmoqlar statistikasi", "Statistika asoslari", "Turizm infratuzilmasi", "Turizmni rejalashtirish" kabi fanlardan o'quv dasturlar, darslik va o'quv qo'llanmalarni tayyorlashda ilmiy-uslubiy manbaa sifatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Turizm sektorining hisob va statistika tizimini takomillashtirish yuzasidan ishlab chiqilgan uslubiy va amaliy takliflar asosida:

xalqaro tasniflashlarni inobatga olib, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar)ning statistik tasniflagichi tarkibiga turistlar sayohatini tashkil qilish, dam olish va sog'lomlashtirish xizmatlari kabi indikatorlarini kiritish orqali turizm xizmatini statistik hisobga olish tizimi va axborotlar bazasini takomillashtirishga oid nazariy-uslubiy materiallardan oliy o'quv yurtlari talabalari uchun tavsiya etilgan "Туристический транспорт и дистрибуция" nomli o'quv qo'llanmani tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2023-yil 26-iyundagi 211-

sonli buyrug'i). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida talabalarda mamlakat hududlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi o'rtasidagi tafovutlarni qisqartirish jarayonlarini amalga oshirishda samarali vosita sifatidagi asosiy funksiyasi jihatidan takomillashtirilgan turizm sohasi tushunchasining iqtisodiy mazmuni bo'yicha yangi nazariy bilim va ko'nikmalar hosil qilish imkoniy yaratilgan;

turizm sektorining statistik ko'rsatkichlar tizimini kengaytirilgan holda tasniflash maqsadida hamda kompleks statistik baholashni amalga oshirish uchun katta sonlar qonuniga asoslanib, soha faoliyati, darajasi va dinamikasini ifodalovchi integral ko'rsatkichlarini takomillashtirish taklifi O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasi tomonidan foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasining 2024-yil 1-fevraldag'i 03-12-17-471-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida mamlakatda turizm sohasini turli umumlashtiruvchi ko'rsatkichlar orqali statistik baholash imkoniy oshirilgan;

turizm sektorining statistik ko'rsatkichlar tizimini kengaytirilgan holda tasniflash maqsadida hamda kompleks statistik baholashni amalga oshirish uchun katta sonlar qonuniga asoslanib, soha faoliyati, darajasi va dinamikasini ifodalovchi integral ko'rsatkichlar bo'yicha berilgan ilmiy takliflar O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasi tomonidan foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasining 2024-yil 1-fevraldag'i 03-12-17-471-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida mamlakatda turizm sohasining iqtisodiy rivojlanish jarayonlarini ko'p omilli statistik tahlil qilish imkoniy oshirilgan;

ekstensiv va intensiv omillarni hisobga olib, turizm infratuzilmasi hamda turistik oqim hajmining iqtisodiy rivojlanishga ta'sirini baholash maqsadida turizmni mamlakat iqtisodiy ko'rsatkichlaridagi ulushi qo'shimcha o'sishining 2030-yilga qadar statistik prognoz parametrлari bo'yicha berilgan ilmiy takliflar O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasi tomonidan foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasining 2024-yil 1-fevraldag'i 03-12-17-471-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida mamlakat va uning hududlarida turizm sektorini istiqboldagi rivojlanish holatini statistik baholash imkoniy yaratilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur ish natijalari 19 ta, jumladan, 14 ta respublika va 5 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda jami 10 ta ilmiy maqola, jumladan, 7 tasi respublika va 3 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya ishi tarkibi kirish, beshta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya


hajmi 151 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekt va predmetlari tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor o‘nalishlarga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati izohlab berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsyaning “**Turizm sektorini statistik tadqiq etishning nazariy asoslari**” deb nomlangan birinchi bobida turizm sohasini milliy yoki xalqaro miqqosda turizmning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini statistik baholash, tarmoqni statistik o‘rganishning nazariy-uslubiy asoslari, O‘zbekiston va uning hududlarida turizm xizmatlari va ularning turlari faoliyatini statistik tadqiq etish usullari bayon etilgan.

Bozor munosabatlariiga asoslangan iqtisodiyotda turizm aholi bandligini ta’minalash va daromadlarni oshirish, mamlakat eksport salohiyatini yuksaltirish, barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta’minalashda muhim omillardan biri hisoblanadi. Turizm insoniy resurslarning tarkibiy qismi sifatida quyidagi funksiyalarni amalga oshirish orqali iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari rivojlanishiga turtki bo‘ladi (1-rasm):



**1-rasm. Turizm sohasining asosiy funksiyalari<sup>3</sup>**

Turizmning ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish funksiyasi turizm sohasida mahsulotlarni ishlab chiqarish, xizmatlar ko‘rsatish va shu orqali YaIMni yaratishda ishtirok etish orqali namoyon bo‘ladi. Jahonda turizm tarmoqlarida 9,2 trln. doll. yalpi qo‘silgan qiymat (YaQQ) yaratilgan bo‘lib, YaIMning qariyb 10,5 %ini tashkil etadi (2020-yilda esa 4,7 trln. doll. qo‘silgan qiymat yaratilgan va YaIMning 5,6 %ini tashkil etgan)<sup>4</sup>. Hisob-kitoblarga ko‘ra, O‘zbekistonda 2022-yilda turizmda 13,6 trln. so‘m miqdorida YaQQ yaratilgan bo‘lib, uning

<sup>3</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

<sup>4</sup> <https://www.statista.com/statistics/>

YaIMdagi ulushi 2,2 % (2020-yilda esa ushbu ko'rsatkich 0,4 %)ni tashkil etdi<sup>5</sup>.

Turizm sektorining asosiy ko'rsatkichlari tizimini baholashimiz zarur. Turizm sektorining faoliyati, darajasi va dinamikasi statistik tahlilda bir qator ko'rsatkichlar orqali baholanadi (1-jadval).

### 1-jadval

#### Milliy turizm sektorining asosiy ko'rsatkichlari<sup>6</sup>

Nº	Ko'rsatkichlar	Hisoblash algoritmi, formulasi	Belgilanishi
1.	Turizmning YaIM (YaHM)da ulushi, %	$\Delta TC = \frac{Q}{YaIM \text{ yoki } YaHM}$	$\Delta TC$ – turizm sektorining ulushi, % YaIM-Yalpi ichki mahsulot, so‘m YaHM-Yalpi hududiy mahsulot qiymati
2.	Turizm sektorining bandlikdagi ulushi, %	$\Delta B_{ulush} = \frac{BBS_{turizm}}{UBS}$	$\Delta B_{ulush}$ – umumi band aholida turizm sektorida band bo‘lganlar ulushi, % BBS <sub>turizm</sub> – turizm sektorida bandlar soni, kishi UBS – umumi bandlar soni, kishi
3.	Turizm sektorining investitsiya hajmidagi ulushi, %	$\Delta I_{ulush} = \frac{IH_{turizm}}{UI}$	$\Delta I_{ulush}$ – umumi investitsiyada turizm sektorining ulushi, % IH <sub>turizm</sub> – joriy davrda turizmga jalb qilingan investitsiya hajmi, so‘m UI – umumi investitsiya hajmi, so‘m
4.	Turizm sektorida asosiy fondlardan foydalanish darajasi, %	$f_{samara} = \frac{Q}{AB}$	$f_{samara}$ – fondlardan foydalanish samarasi, so‘m Q – ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi, so‘m AB – asosiy vositalarning o‘rtacha yillik qiymati, so‘m
5.	Turizm sektorida olingan yalpi foyda, so‘m	YaF=MST-MT	YaF-Yalpi foyda, so‘m MST – mahsulot (xizmat) ko‘rsatishdan olingan tushum, so‘m MT – mahsulot (xizmat) tannarxi, so‘m
6.	Turizm sektori rentabelligi, %	$R\Delta_{turizm} = \frac{SF}{MT}$	$R\Delta_{turizm}$ – turizm sektori rentabelligi, % SF – turizm sektorida olingan sof foyda, so‘m MT – mahsulot (xizmat) tannarxi, so‘m
7.	Turizm sektoridagi innovatsiyalarning ulushi, %	$\Delta TI = \frac{TIH}{UIH}$	$\Delta TI$ – turizm sektorida innovatsiya ulushi, % TIH – turizmda innovatsiya hajmi, so‘m UIH – iqtisodiyotdagi umumi innovatsiya hajmi

Ilmiy adabiyotlar va rasmiy hujjatlarni<sup>7</sup> guvohlik berishicha jahonda va shu jumladan, O‘zbekistonda ham turistlarni statistik uchetida muammolar mavjud. Masalan, ayrim davlatlar chegarani kesib o‘tgan shaxs turist deb ro‘yxatdan o‘tsa, boshqasida u turist hisoblanmaydi. Juhon tajribasidan ma’lumki, chegarani kesib o‘tuvchi fuqarolarni o‘zi ham ikki guruha bo‘linadi: milliy statistikasida hisobga olinadigan xalqaro tashrif buyuruvchi; statistikasida hisobga olinmaydigan xalqaro tashrif buyuruvchi.

<sup>5</sup> O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari.

<sup>6</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

<sup>7</sup> Вспомогательный счет туризма: рекомендуемая методологическая основа, 2008 god, ISBN 098-92-1461023-6, -Nyu York, BMT, BTT, Yevrostat. 2010. s.10

Turizm sohasi strategik sektor sifatida o‘zining rivojlanish tendensiyasiga ega. Buni O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirishning 2019–2025-yillarga mo‘ljallangan Konsepsiyasida keltirilgan prognoz ko‘rsatkichlarida ham ko‘rish mumkin. Kelajakda turizm xizmatlari eksporti keskin rivojlanish tendensiyasiga ega bo‘lmoqda (2-jadval).

## 2-jadval

### O‘zbekiston turizm sohasini rivojlantirishning 2019–2025-yillarga mo‘ljallangan Konsepsiyasida keltirilgan prognoz ko‘rsatkichlari<sup>8</sup>

T/r	Ko‘rsatkichlar nomi	2018-yil		2020-yil		2025-yil	
		Miqdori	O‘sish sur’ati, %	Miqdori	O‘sish sur’ati, %	Miqdori	O‘sish sur’ati, %
1.	O‘zbekistonga keladigan xorijiy turistlar soni, ming kishi	4 800	100,0	6 302,2	133,7	9 089,3	121,0
2.	Kelgan xorijiy turistlardan tushgan o‘rtacha daromad, AQSh dollari	198,1	100,0	201,8	101,9	245,7	124,0
3.	Turizm xizmatlari eksporti, mln. AQSh dollarri	951,0	100,0	1 271,9	133,7	2 232,8	2,34 m.

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, mamlakatimizda turizm xizmatlari eksporti 2025-yilda 2018-yilga nisbatan 2,34 marta oshadi. Shu davrda O‘zbekistonga tashrif buyuradigan xorijiy turistlar soni 121,0 %ga o‘sishi ko‘zda tutilgan. Tashrif buyurgan xorijiy turistlardan tushadigan o‘rtacha daromad 24,0 %ga ko‘payadi.

Turizm sektorini boshqarishning iqtisodiy strategiyasini tadqiq qilish natijasida O‘zbekiston sharoitida hududiy turistik klaster modelini shakllantirishning konseptual yo‘nalishlari ishlab chiqildi. Bunga asosan turizm sohasida iqtisodiy strategiyani takomillashtirish jarayonida quyidagi tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi (2-rasm).

<sup>8</sup> 2019–2025-yillarda O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish Konsepsiyasini amalga oshirishning maqsadli ko‘rsatkichlari asosida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 5 yanvardagi PF-5611-sonli Farmoni. Lex.uz



## 2-rasm. Turizm korxonasida iqtisodiy strategiyasini takomillashtirish tartibi<sup>9</sup>

Pandemiya va siyosiy vaziyatlar tufayli turizm bozori ham sekinlik bilan rivojlanayotgan hozirgi davrda mazkur sohada iqtisodiy strategiyani takomillashtirib borish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Chunki, hozirgi sharoitda iqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridan biriga aylanayotgan turizm sohasi ham tegishli tarzda o'zining raqobatbardoshligini, jozibadorligini ta'minlab borishi lozim. Bunga erishishning asosiy yo'nalishlaridan biri iqtisodiy strategiyasini ta'minlash va ijtimoiy-iqtisodiy omillarni baholash sanaladi.

Dissertatsiyaning “O'zbekiston Respublikasida turizm sektorining rivojlanishini iqtisodiy-statistik tahlili” deb nomlangan ikkinchi bobida O'zbekiston iqtisodiyotida milliy turizm tarmog'ini tutgan o'rnini statistik baholash va ularga ta'sir qiluvchi omillar yoritilgan.

Tadqiqot davomida ishlab chiqilgan va takomillashtirilayotgan turizm statistikasi ko'rsatkichlari tizimi Jahon turizm tashkiloti tomonidan ishlab chiqilgan uslubiyotga asoslangan. Mazkur ko'rsatkichlar tizimi turizm statistikasi sohasidagi xalqaro tavsiyalardan kelib chiqadi hamda milliy statistikaning xalqaro uslubiyotga muvofiqlashtirilishiga xizmat qiladi.

To'g'ridan-to'g'ri turizmda yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymatning YaIMdagi ulushi ( $Sh_t$ ) quyidagi formulalar yordamida aniqlanadi:

<sup>9</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

$$Sh_t = \frac{\sum_{s=1}^n O_s}{GDP} \times 100, \quad (1) \quad O_s = \sum_{i,s=1}^{m,n} \frac{Tic_s}{Tof_s} \times G_{si} \quad (2)$$

bu erda:

$O_s$  –  $s$  - to‘g‘ridan-to‘g‘ri turizm tarmoqlarida yaratilgan qo‘shilgan qiymat hajmi;

$GDP$  - yalpi ichki mahsulot hajmi;

$Tic_s$  –  $s$  - faoliyat turi bo‘yicha mamlakat ichidagi turizm iste’moli;

$Tof_s$  –  $s$  - faoliyat turi bo‘yicha umumiy ichki taklif;

$G_{si}$  –  $s$  - faoliyat va  $i$  xizmat turi bo‘yicha qo‘shilgan qiymat hajmi.

Mamlakat ichidagi turizm iste’moli ( $Tic$ ) va turizm tarmoqlari bo‘yicha umumiy ichki taklif ( $Tof$ ) quyidagi formulalar yordamida aniqlanadi:

$$Tic = \sum_{b=1}^n Edc_i + \sum_{b=1}^n Inc_i, \quad (3) \quad Tof = \sum_{s=1}^n Tdo_s, \quad (4)$$

bu erda:

$Edc_i$  –  $i$  - xizmat turi bo‘yicha kirishga oid turizm iste’moli;

$Inc_i$  –  $i$  - xizmat turi bo‘yicha ichki turizm iste’moli;

$Tdo_s$  –  $s$  - faoliyat turi bo‘yicha ichki taklif.

Turizm tarmoqlarida bandlarning iqtisodiyotda jami bandlardagi ulushi ( $Sh_b$ ) va turizm tarmoqlariga kiritilgan investitsiyalarning iqtisodiyotga kiritilgan jami investitsiyalardagi ulushi ( $Sh_{In}$ ) quyidagi formulalar yordamida aniqlanadi:

$$Sh_b = \frac{\sum_{s=1}^n b_s}{b} \times 100, \quad (5) \quad Sh_{In} = \frac{\sum_{s=1}^n In_s}{In} \times 100, \quad (6)$$

bu erda:

$b_s$  –  $s$  - faoliyat turi bo‘yicha bandlar soni;

$b$  - iqtisodiyotda jami bandlar soni;


$In_s$  –  $s$  - faoliyat turiga kiritilgan investitsiyalar hajmi;

$In$  - iqtisodiyotga kiritilgan jami investitsiyalar hajmi.

Turizm yordamchi hisobi turizmnning barcha jihatlari, jumladan, turizm iste’moli tarkibi, tashrif buyuruvchilarga xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq iqtisodiy faoliyat turlari, turizm faoliyatining boshqa faoliyat turlari bilan aloqadorligi bo‘yicha tahliliy axborotlarni shakllantirish imkonini beradi. Turizm agregat ko‘rsatkichlarining asosiy vazifasi turizm sohasidagi batafsil statistik ma’lumotlarni umumlashtirgan holda aks ettirish hisoblanib, ular mamlakatdagi yakuniy iste’mol yoki YaQQni tavsiflovchi boshqa makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar bilan qiyosiy taqqoslanadi.


Tadqiqot ishida turizm tarmoqlarida real nisbiy o‘sish (kamayish) sur’atlari hisoblanib, uning YaIM o‘sishiga ta’siri baholandi. Tahlillarimizga ko‘ra, 2014–2017-yillarda va 2019-yilda turizm tarmoqlarida real o‘sish sur’atlari YaIMga nisbatan yuqori bo‘lgan.

2020-yilda esa 2019-yil bilan taqqoslaganda pandemiya natijasida YaIM o‘sish sur’atlarining sekinlashishi (1,7 %) kuzatilgan bo‘lsa, turizm tarmoqlarida doimiy baholarda kamayish (-8,5 %) kuzatilgan. 2022-yilga kelib esa, YaIMning o’tgan yilga nisbatan o‘sishi 6,0 %ni tashkil qilgan bo‘lsa, turizm tarmog‘ida ushbu ko‘rsatkich 4,1 %ni tashkil qilgan (3-rasm.)



**3-rasm. Mamlakat YaIM va turizm tarmog‘ining o‘sish (kamayish) sur’ati, (%da)<sup>10</sup>**

O‘zbekiston Respublikasiga tashrif buyurgan chet el fuqarolari soni to‘g‘risida keltirilgan ma’lumotlardan, mamlakatimizga tashrif buyuruvchi chet el fuqarolari soni 2018–2019-yillarda (2018-yilga 2017-yilga nisbatan 2 barobar, 2019-yilda 2018-yilga nisbatan 126 %) keskin oshgan bo‘lib, 2020-yilga kelib, butun dunyoda kuzatilayotgan pandemiya sababli keskin (22,2 % yoki 2019-yildagidan 4,5 barobar kam) tushib ketgan (4-rasm).



**4-rasm. O‘zbekiston Respublikasiga tashrif buyurgan chet el fuqarolari soni dinamikasi, (ming kishi)<sup>11</sup>**

Shu bilan birga, 2021-yil hamda 2022-yillarda mos ravishda 1881,0 ming va 5233,0 mingtani tashkil qilgan va bu pandemiyadan keyingi davrda ijobiy o‘sish va o‘zining pandemiyadan avvalgi holatini qayta tiklaganligini ko‘rsatib beradi.

<sup>10</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huuridagi statistika agentligi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi.

<sup>11</sup> <http://www.stat.uz>

### 3-jadval

#### O‘zbekiston Respublikasida turistik maqsadlarda kelgan chet el fuqarolarining safar maqsadlari bo‘yicha taqsimlanishi, (ming kishi)<sup>12</sup>

	Yillar					2022/2018 o‘zgarishi	
	2018	2019	2020	2021	2022	+,-	%
Jami kelgan chet elliklar	5346,3	6748,5	1504,1	1881,3	5232,8	-113,5	99,7
ayollar	2830,5	3530,0	738,7	924,6	2647,0	-183,5	93,5
erkaklar	2515,8	3218,5	765,4	956,7	2585,8	70,0	102,8
<b>Bo‘sh vaqt va dam olish</b>	458,1	1043,9	129,3	155,1	392,2	-65,9	85,6
ayollar	215,6	548,6	58,9	109,9	164,2	-51,4	76,1
erkaklar	242,5	495,3	70,4	45,2	228,0	-14,5	94,0
<b>Davolanish</b>	52,5	55,6	15,0	3,4	70,0	17,5	133,3
ayollar	32,3	31,5	8,0	13,9	39,3	7,0	121,6
erkaklar	20,2	24,1	7,0	18,5	30,7	10,5	152,0
<b>Qarindoshini yo‘qlash</b>	4713,5	5520,7	1321,4	1613,1	4657,6	-55,9	98,8
ayollar	2555,1	2916,8	664,7	769,1	2410,3	-144,8	94,3
erkaklar	2158,4	2603,9	656,7	844,0	2247,3	88,9	104,1
<b>O‘qish</b>	14,6	21,4	4,7	6,4	8,8	-5,8	60,3
ayollar	8,6	12,3	2,3	4,9	3,3	-5,3	38,4
erkaklar	6,0	9,1	2,4	1,5	5,5	-0,5	91,6
<b>Xizmat safari</b>	56,6	53,1	17,4	60,7	83,8	27,2	148,0
ayollar	9,9	9,4	2,2	51,3	16,9	7,0	170,7
erkaklar	46,7	43,7	15,2	9,4	66,9	20,2	143,2
<b>Tijorat</b>	50,9	53,8	16,3	13,6	20,5	-30,4	40,3
ayollar	9,0	11,4	2,4	7,6	13,1	4,1	145,5
erkaklar	41,9	42,4	13,9	6,1	7,4	-34,5	17,6

Yuqorida jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, respublikamizga 2023-yil 1-yanvar holatiga 5232,8 kishi turist sifatida xorijiy fuqarolar tashrif buyurgan. Ularning 51,0 foizini ayollar, 49,0 foizini erkaklar tashkil etadi.


Oxirgi yillarda O‘zbekistonga tashrif buyurayotgan turistlarning aksariyati qarindoshlarini o‘qlash (89,0 foiz), bo‘sh vaqt va dam olish (7,5 foiz), davolanish (1,3 foiz), xizmat yuzasidan (1,6 foiz) kelmoqda. Shuningdek, xorijiy davlatlardan o‘qishga, tijorat maqsadida ham xorijiy fuqarolar tashrif buyurmoqda.

Tahlil qilinayotgan yillarda ayollarning turist sifatida mamlakatimizga tashrif buyurishi, qarindoshlarni yo‘qlashga kelishi, o‘qish uchun kelishi sezilarli darajada kamaygan. Ammo xizmat yuzasidan, davolanish uchun hamda tijorat maqsadlarida kelishi sezilarli darajada ortgan.

Mamlakatimizda turistik faoliyatni amalga oshiruvchi tashkilotlar soni 2014-yilda 343 tani tashkil etgan bo‘lsa, 2018-yilda 502 tani tashkil etgan va 2019-yilga kelib bu ko‘rsatkich 517 taga etgan. 2020-yilga kelib esa pandemiya sababli ushbu faoliyatni amalga oshiruvchi korxonalar soni 337 tani tashkil etgan bo‘lsa, 2022-yilda turistik firma va tashkilotlar soni 348 tani tashkil etib, u o‘tgan yilga nisbatan

<sup>12</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi va Turizmni rivojlantirish Davlat qo‘mitasi ma’lumotlari.

121,0 %ni tashkil qilgan. Ular tomonidan 673,7 ming kishiga xizmat ko'rsatilgan va bu o'tgan yilga nisbatan qariyb 116,7 % teng bo'lgan (5-rasm).



**5-rasm. Turistik faoliyatni amalga oshiruvchi korxonalar va xizmat ko'rsatilgan tashrif buyuruvchilar soni, (ming kishi)<sup>13</sup>.**

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarni hududlar kesimida tahlil qilish orqali mamlakatimizda turizmni rivojlanishiga katta ta'sir qilayotgan hududlarni aniqlab olish imkoniyati yuzaga keladi (4-jadval).

**4-jadval**  
**Hududlar bo'yicha turistik korxona va tashrif buyuruvchilar soni, (ming kishi)<sup>14</sup>**

Hududlar	Turistik firmalar soni, birlik				Tashrif buyurganlar soni, ming kishi			
	2020	2021	2022	O'zgarishi, %da	2020	2021	2022	O'zgarishi, %da
O'zbekiston	337	288	348	103,3	212	578	674	3,1 m
Qoraqalpog'iston	8	11	13	163	3,9	6,9	8,0	2,1 m
Andijon	5	3	4	80	0,2	0,1	0,1	58,3
Buxoro	11	16	19	173	1,1	6,3	7,3	6,7 m
Jizzax	8	3	4	50	10,5	16,2	18,9	179,9
Qashqadaryo	4	3	4	100	1,7	0,5	0,6	34,3
Navoiy	4	10	12	3,0 m.	0,9	4,4	5,1	5,7 m
Namangan	4	1	1	25	0,7	0,0	0,0	0,0
Samarqand	45	41	49	109	17,6	7,8	9,1	51,7
Surxondaryo	1	2	2	0	0,8	0,8	0,8	100,0
Sirdaryo	1	1	1	100	0,2	0,5	0,6	2,9 m
Toshkent vil.	7	3	4	57	6,3	4,5	5,2	83,3
Farg'ona	5	8	10	2,0 m.	4,2	10,1	11,8	2,8 m
Xorazm	6	8	10	167	77,2	236,4	275,6	3,5 m
Toshkent sh.	229	178	215	94	88,1	284,1	331,3	3,7 m

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkinki, Toshkent shahrida faoliyat yuritayotgan turistik firma va korxonalar soni 2020-yilga nisbatan

<sup>13</sup> Stat.uz ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan

<sup>14</sup> Stat.uz ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan

kamaygan bo‘lsada (94,0%), ular tomonidan xizmat ko‘rsatilgan tashrif buyuruvchilar soni 3,7-martaga ortgan. Shuningdek, mamlakatimizda tashrif buyurganlar soni bo‘yicha Toshkent shahridan so‘ng Xorazm viloyati (275,6 ming kishi) yuqori o‘ringa ega bo‘lgan bo‘lsa (2020-yilga nisbatan 3,5 marta ko‘p), tashrif buyurganlar sonining 2020-yilga nisbatan o‘sish sur’ati bo‘yicha Buxoro viloyati (6,7-marta ortgan) birinchi o‘rinni egallagan. Shuningdek, mamlakatimizda ichki turizm ham ildam rivojlanib kelmoqda va bu o‘z navbatida tashqi turizmnı rivojlanishiga zamin yaratadi (5-jadval).

#### 5-jadval

#### **O‘zbekistonda ichki turizm bo‘yicha tashrif buyuruvchilar soni, (ming kishi)<sup>15</sup> (1 yanvar holtiga)**

Hududlar	2021-yil	2022-yil	O‘zgarishi, %da
<b>O‘zbekiston</b>	<b>176646</b>	<b>522009</b>	2,9 m.
Qoraqalpog‘iston	3897	6853	175,9
Andijon	164	5944	36,2 m
Buxoro	993	16177	16,3 m.
Jizzax	10456	427	4,1
Qashqadaryo	1632	4398	2,7 m
Navoiy	890	0	0,0
Namangan	634	6599	10,4 m.
Samarqand	13989	24	0,2
Surxondaryo	0	520	-
Sirdaryo	200	4375	21,9 m.
Toshkent vil.	6163	7394	120,0
Farg‘ona	4016	220940	5,5 m.
Xorazm	71967	243678	3,3 m.
Toshkent sh.	616	0	-

Yuqoridagi jadval ma’lumotlaridan ko‘rishimiz mumkinki, Farg‘ona viloyatiga mamlakatimiz aholisining turist sifatida tashrifi o‘tgan yilga nisbatan jiddiy sur’atlarda o‘sgan (5,5-marta ortgan). Xorazm viloyati ichki turizmda 2021-yilda tashrif buyurganlar soni eng ko‘p bo‘lgan hudud sifatida eng yuqori ulushga ega bo‘lgan.

Mamlakatimizda mavjud hisob tizimlari, ya’ni: korxonalarini ma’lum mezonlar bo‘yicha guruhashga imkon beruvchi korxona va tashkilotlar, muassasalar va birlashmalarning yagona Davlat reyestri (YEGRPO); korxona va tashkilotlarning Umumrespublika klassifikatori (OKPO) va OKPO bilan bog‘langan boshqa barcha Umumrespublika klassifikatorlari (Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari Umumrespublika klassifikatori (MHTT), ma’muriy-hududiy tuzilmalar obyektlari Umumrespublika klassifikatori (MHOBT), korxona va tashkilotlarning tashkiliy-huquqiy shakllari Umumrespublika klassifikatori (THSHT-1), qabul qilingan milliy hisoblar tizimi metodologiyasiga muvofiq makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarni hisob-kitob qilish uchun sektorlar bo‘yicha institutsional birliklarni taqsimlash muammosini hal qilishga imkon beradigan iqtisodiyot sektorlari bo‘yicha institutsional birliklar Umumrossiya klassifikatori; iqtisodiy faoliyat turlari

<sup>15</sup> Stat.uz ma’lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan

kesimida axborotlarni to‘plash va hisobini yuritish uchun mo‘ljallangan mahsulot va xizmatlar iqtisodiy faoliyat turlari Umumrespublika klassifikatori (IFUT 2); O‘zbekiston iqtisodiyotining o‘ziga xosliklarini va uni tartibga solish xususiyatlarini hisobga olgan holda Yevropa Ittifoqi faoliyat turlari statistika tasnifi (KDEC/NACE) hamda IFUT bilan mos keladi, hozirgi kunda to‘plangan statistik ma’lumotlar asosida turizmning mamlakat YaIMdagi ulushini hisoblash o‘ta muammoli, chunki turizm o‘z sohasida iqtisodiyotning ko‘plab tegishli tarmoqlarini: turar-joy sektori; transport xizmatlari; umumiyligi ovqatlanish va boshqalarni o‘z ichiga oladi.

## 6-jadval IFUT klassifikatori bo‘yicha turizmni statistik hisobini yuritilishi<sup>16</sup>

T/r	Xizmatlar	Turizm tarmoqlari
1.	Turistlarni joylashtirish xizmatlari	Turistlarni joylashtirish
1.a	1.b da keltirilganlardan tashqari tashrif buyuruvchilarni joylashtirish bo‘yicha xizmatlar	1.b da keltirilganlardan tashqari tashrif buyuruvchilarni joylashtirish
1.b	Dam olish uylari bilan bog‘liq barcha mulkchilik shakllari bo‘yicha joylashtirish xizmatlari	Dam olish uylarining barcha mulkchilik shakli bo‘yicha joylashtirish faoliyati
2.	Umumiyligi ovqatlanish korxonalari xizmatlari	Umumiyligi ovqatlanish sohasi faoliyati
3.	Temir yo‘l yo‘lovchi transporti xizmatlari	Temir yo‘l yo‘lovchi transporti
4.	Quruqlikdagi yo‘lovchi transporti xizmatlari	Quruqlikdagi boshqa yo‘lovchi transportlar
5.	Suv transporti xizmatlari	Suv transporti
6.	Havo yo‘li yo‘lovchi transporti xizmatlari	Havo yo‘li yo‘lovchi transporti
7.	Transport vositalari ijara qilish xizmati	Avtotransport ijerasi
8.	Turizm agentliklari xizmatlari va bron qilish bo‘yicha boshqa xizmatlar	Sayyoohlik agentligi va boshqa bron xizmatlari faoliyati
9.	Madaniyat sohasidagi xizmatlar	Madaniyat sohasi faoliyati
10.	Sport va dam olish bo‘yicha xizmatlar	Sport va dam olish sohasi faoliyati
11.	Alohibda davlatlar uchun xarakterli bo‘lgan turizm mahsulotlari	Alohibda davlatlar tomonidan belgilanadigan turizm mahsuloti chakana savdosi
12.	Alohibda davlatlar uchun xarakterli bo‘lgan turizm xizmatlari	Alohibda davlatlar uchun xarakterli bo‘lgan turizm faoliylari

Turizm tarmoqlarini hisobga olish bo‘yicha O‘zbekistonda mavjud tasniflagichlar Rossiya va boshqa MDH davlatlaridan farqli ravishda xalqaro standartlarga to‘liq mos keladi va qo‘srimcha yig‘ma ko‘rsatkichlardan iborat tasniflagich ishlab chiqishni talab etmaydi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobiga “O‘zbekistonda turizm xizmatlari rivojlanishining asosiy tendensiyalarini ekonometrik modellarini tuzish va prognozlash” deb nomlanib, turizm sohasini statistik tadqiq etishdagi ilg‘or xorijiy tajribalardan samarali foydalanish yo‘llari, O‘zbekistonda turizmni milliy iqtisodiyotning strategik sektori sifatida rivojlanishini ekonometrik modelllashtirish,

<sup>16</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

ko‘p omilli statistik prognozlash amalga oshirilgan.

Butunjahon turizm tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, xalqaro turizmda asosiy xarajatlarni industrial rivojlangan davlatlar qilayapti, xususan AQSh, Germaniya, Buyuk Britaniya va Ispaniya. Jami xarajatlarning uch qismiga yaqini ana shu to‘rt davlat ulushiga to‘g‘ri keladi. Ulardan tashqari xalqaro turizm xarajatlarini shakllantirishda, ularni kattaligi va tarkibida “katta ettilik”ning boshqa a’zolari – Fransiya, Italiya va Kanada sezilarli rol o‘ynaydi.

So‘nggi yillarda salmoqli xalqaro turizm xarajatlarini shakllantirayotgan guruh mamlakatlarga Skandinaviya mamlakatlari (Shvetsiya, Norvegiya, Finlyandiya), ba’zi G‘arbiy Yevropa mamlakatlari (Avstriya, Shveytsariya, Benilyuks mamlakatlari), Lotin Amerikasining yangi industrial mamlakatlari (Braziliya, Argentina, Venesuela), Osiyo mamlakatlaridan – Xitoy, Singapur, Malayziya qo‘sildi.

Shuni ta’kidlash joizki, xalqaro turistik xarajatlar umumiy hajmida Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlari ulushi uncha katta emas. Ular orasida bu ko‘rsatkich bo‘yicha etakchilar qatorida turuvchi Rossiya va xalqaro turistik xarajatlar rekord o‘sishini namoyish etayotgan Polsha alohida ajralib turadi. Avstraliya subregioni (Avstraliya va Yangi Zellandiya) jahon turistik bozorida kamtarona o‘rinni egallab turibdi. Hamma xorijiy turistik safarlarning 0,6 % va jahonda xalqaro turizm xarajatlarining 2 % uning hissasiga to‘g‘ri keladi, xolos. Ammo xorijga bir safar uchun aholi sarflayotgan turistik xarajatlar ko‘rsatkichi bo‘yicha shubhasiz Avstraliya etakchi hisoblanadi. Sayohatga sarflar yuqoriligi subregionning asosiy turizm markazlaridan uzoqligi bilan izohlanadi. Safar qiymatida sarflar ulushining 30 % xalqaro transport tashishiga to‘g‘ri keladi. Belgilangan joyga etib borish uzoqligi transport xarajatlarini qoplash shunga majbur etadi. Avstraliya va Yangi Zelandiya aholisiga xorijga safar o‘rtacha, 2604 dollarga (transport xarajatlari qo‘silgan holda) tushadi. Bu jahon o‘rtacha darajasidan uch baravar ko‘pdir<sup>17</sup>.

Turistik tushumlarda Amerika ulushi AQShning faol turistik siyosat olib borishi natijasida oshib bormoqda. Bunga AQSh, Kanada va Meksika o‘rtasida ichki regional turistik almashinishning tezlashgani, yaqinda tashkil qilingan Shimoliy Amerika erkin savdo assotsiatsiyasi doirasida integratsiya aloqalarining kengayayotgani yordam bermoqda.

Turistik tushumlarda Afrika ulushining juda pastligi o‘ziga diqqatni tortadi (2,2 %). Ayniqsa daromadlarga taqqoslanganda u 4 %ni tashkil qilgan. Bunday vaziyat hududining umumiy iqtisodiy turg‘unligi va o‘z daromadlarining sezilarli qismini Afrika bozorlarida ishlayotgan xalqaro turistik agentlar va mehmonxona korporatsiyalariga o‘tkazilishi oqibatida vujudga keldi.

Xalqaro turizmdan tushumlar rivojlangan Shimoliy Amerika mamlakatlari (AQSh, Kanada) va G‘arbiy Yevropa (Fransiya, Buyuk Britaniya, Germaniya), O‘rtal er dengizi (Italiya, Ispaniya, Gretsiya), va Alp (Avstriya, Shveytsariya) mamlakatlarida to‘planayapti. Ularning ulushi jami tushumlarning yarmini tashkil

<sup>17</sup> Jahon banki ma’lumoti: <https://data.worldbank.org/indicator>.

qiladi. So‘nggi yillarda etakchi o‘nlikka, shuningdek, Xitoy ham kirdi<sup>18</sup>.

Hozirgi paytda 15 eng daromadli turistik mamlakatlar ro‘yxatini AQSh boshqarmoqda. Ular katta o‘sish bilan oldinlanib ketgan holda keyingi yillarda o‘z turistik daromadlarini tobora ko‘paytirib borishayapti.

## 7-jadval

### Turizmdan pul tushumlari bo‘yicha dunyo mamlakatlari reytingi, (%)<sup>19</sup> (1 yanvar holtiga)

Reyting	Davlatlar	Xalqaro turizmdan pul tushumlari			
		mlrd. AQSh doll.		o‘sish (kamayish ) sur’ati , %	
		2020	2021	2020/2019	2021/2020
1.	AQSh	239,4	84,2	99,0	35,2
2.	Fransiya	70,8	36,0	97,6	50,8
3.	Avstraliya	48,0	26,2	101,3	54,7
4.	Italiya	51,9	20,5	100,6	39,4
5.	Avstriya	25,9	15,4	102,0	59,3
6.	Tayland	64,4	15,4	104,9	23,9
7.	Qatar	15,6	14,3	102,7	91,5
8.	Turkiya	41,4	13,8	112,6	33,3
9.	Hindiston	31,7	13,4	108,6	42,4
10.	Janubiy Koreya	25,5	11,8	110,2	46,3

Mutaxassislarning fikricha, hozirgi kunda turizm xizmatlari yoqilg‘i, kimyo va oziq-ovqat sanoati mahsulotlaridan keyingi o‘rinda turuvchi eksportbop mahsulot sifatida e’tirof etilmoxda. Oxirgi yillarda xalqaro turizm xizmatlarining jahon tijorat xizmatlari eksportidagi ulushi 30 foizni, tovarlar va xizmatlar eksportidagi ulushi 6 foizni, butun dunyo yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 5 foizni tashkil qilmoqda. Jahon bo‘yicha ishlab chiqarishda band bo‘lganlarning 6-7 foizi turizm hissasiga to‘g‘ri kelmoqda<sup>20</sup>.

Iqtisodiyoti rivojlangan va diversifikatsiyalashgan mamlakatlar yalpi ichki mahsulotida turizmnинг ulushi 2 foiz atrofida tebranadi (turizm sektori unchalik katta bo‘lmagan mamlakatlarda). Turizm sektori taraqqiy etgan ba’zi mamlakatlarda bu ko‘rsatkich 10 foizdan ko‘proqni tashkil etadi. Ba’zi kichkina orollarda turizmnинг yalpi ichki mahsulotdagi hissasi 25 foizgacha ham etishi mumkin.

Jahon iqtisodiyotida sodir bo‘layotgan davriy inqirozli holatlarga qaramasdan, xalqaro turizm o‘zining dinamik rivojlanish tendensiyalarini namoyon etmoqda. 1980-yilda dunyo bo‘yicha xorijiy turistlar soni 277 milliontani tashkil qilgan bo‘lsa,

<sup>18</sup> Jahon banki ma’lumoti: <https://data.worldbank.org/indicator>.

<sup>19</sup> Jahon banki ma’lumoti: <https://data.worldbank.org/indicator>

<sup>20</sup> Jahon banki ma’lumoti: <https://data.worldbank.org/indicator>.

1995-yilda 528 million, 2011-yilda esa 983 millontani tashkil qildi. Ekspertlarning ta'kidlashicha, agar xorijiy turistlar oqimi shu tendensiyada ko'payishda davom etsa, 2010-yildan 2030-yilgacha xorijiy turistlar soni har yili o'rtacha 3,3 foizga oshib, 1,8 milliardga etadi<sup>21</sup>.

Shuningdek, turizm sohasining YaIMga qo'shgan umumiy hissasi bo'yicha 2020-yilda AQSh dunyoning 129 mamlakati ichida 1-o'rinni, Yaponiya esa 4-o'rinni egallab turibdi. O'zbekiston Respublikasi esa 0,4 foiz bilan 87-o'rinni egallagan.

Yuqoridagilardan ham ma'lumki, mamlakatning turistik sohadagi imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishda ichki turizmni rivojlantirish muhim o'rinni tutadi. Amerika Qo'shma shtatlarida ichki turizm xarajatlari 2020-yilda turizm sohasi jami xarajatlarning 65,3 foizini tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich Yevropa mamlakatlarida 62,3 foizni, Yaponiyada esa juda yuqori ko'rsatkichni – 83,4 foizni tashkil qilgan<sup>22</sup>.

Ichki turizmni rivojlantirishning yana bir muhim omili narx omildir. Turistik xizmatlar va infratuzilma obyektlari xizmatining narxi aholining barcha qatlamlariga mos kelishi lozim. Aksariyat hollarda, sayohat davri eng kamida 2-3 kunni, ba'zida esa 7-10 kunni tashkil qiladi<sup>23</sup>.

Bunday sharoitda aholi tomonidan mehmonxonalar, pansionatlar va boshqa turar joylarga ehtiyoj sezilishi shubhasiz.

Tadqiqotda respublikamiz turizm xizmatlari bozorini rivojlanishi va boshqarishni o'ziga xos jihatlarini amaliyotda keng foydalanib kelinayotgan SWOT-tahlil asosida ochib berildi (8-jadval). SWOT-tahlil strategik rejalashtirish usuli hisoblanib, tashkilotning ichki va tashqi muhitlardagi mavjud omillarini aniqlashga yo'naltirilgan. Ular to'rtta kategoriyaga ajratiladi, ya'ni Strengths (kuchli tomonlari), Weaknesses (bo'sh tomonlari), Opportunities (imkoniyatlari) va Threats (xavf-xatarlari).

## 8-jadval

### O'zbekistonda turizm bozorining SWOT tahlili<sup>24</sup>

KUCHLI TOMONLAR	ZAIF TOMONLAR
<p>1. Turizm obyekt mavjud hududlarning yuqori geografik va tabiiy salohiyati</p> <p>2. Turizm obyektlarida turli madaniy-maishiy va dam olish xizmatlarining mavjudligi</p> <p>3. Turizm xizmatlaridan maqsadli foydalanish uchun o'sib borayotgan real talabning mavjudligi</p>	<p>1. Mamlakatimiz va uning hududlarida turizm sohasidagi mavjud yuqori salohiyatdan maksimal darajada foydalana olmaslik</p> <p>2. O'zbekiston Respublikasi yalpi ichki mahsulotida va bandlikda turizm sohasining ulushini juda pastligi</p> <p>3. Turizm sohasiga investitsiyalar jalb etishning past darajadaligi</p>

<sup>21</sup> Jahon banki ma'lumoti: <https://data.worldbank.org/indicator>.

<sup>22</sup> Jahon banki ma'lumoti: <https://data.worldbank.org/indicator>.

<sup>23</sup> Jahon banki ma'lumoti: <https://data.worldbank.org/indicator>.

<sup>24</sup> Jadval ma'lumotlari muallif tadqiqotlari natijalari asosida tayyorlangan.

<p>4. O‘zbekiston Respublikasining “Buyuk Ipak yo‘li”da joylashganligi</p> <p>5. Turizm sohasini rivojlantirishga hukumatning alohida e’tibor qaratayotganligi va uning investitsiya sifatida e’tirof etishi</p> <p>6. Xavfsizlik nuqtayi nazaridan mamlakatning tinch va osoyishtaligi va inson daxlsizligini ta’minlanganligi</p>	<p>4. Turizm obyektlaridagi mehmonxonalar va servis tizimining xalqaro andozalarga javob bera olmasligi hamda xizmat ko‘rsatish sifatining past darajasi</p> <p>5. Turistik hududlarda zaruriy infratuzilmalar va klasterlarning etarli darajada shakllanmaganligi</p> <p>6. Xizmatlar narxining xizmatlar sifatiga nomutanosibligi</p>
<b>IMKONIYATLAR</b>	<b>XATARLAR</b>
<p>1. O‘zbekistonda ichki va tashqi turizmni rivojlantirish tendensiyasi hamda milliy turizm sohasini rivojlantirish bo‘yicha davlat dasturlari va chora-tadbirlarni ishlab chiqilganligi</p> <p>2. Turizm sohasidagi investitsion muhit va jozibadorlikni oshirish imkoniyatlari</p> <p>3. Turizm xizmatlari ko‘rsatish geografiyasini hududlar bo‘yicha kengaytirish imkoniyatlari</p> <p>4. Yangi quvvatlarni ishga tushirish va klasterlarni shakllantirish hisobiga yangi ish o‘rinlarini yaratish imkoniyatlari</p>	<p>1. Jahon turizm xizmatlari bozori bilan bog‘liq iqtisodiy siyosatning o‘zgarishi</p> <p>2. Xalqaro axborot tizimlariga qo‘silish natijasida xalqaro bozordagi etakchi turistik korxonalar bilan raqobatbardoshlikning kuchayib borayotganligi</p> <p>3. Raqobatchilarining paydo bo‘lishi natijasida xizmatlar va daromadlarning raqobatchilar o‘rtasida taqsimlanishi</p> <p>4. Jahonda turizm xizmatlari bozorida narx konyunkturasidagi o‘zgarish, sifatli xizmat ko‘rsatish uchun standart va talablarning doimiy ravishda o‘zgarishi va h.k.lar</p>

Tahlillarimiz ko‘rsatishicha, turizm xizmatlari bozorini boshqarishda kuchli tomonlari bilan birga zaif tomonlari ham mavjud ekan. Joylarda turizm sohasidagi boshqaruv va xo‘jalik subyektlari rahbarlari bo‘sh tomonlarga jiddiy e’tibor berishlari kerak, aks holda kutilgan iqtisodiy samaradorlikka erishib bo‘lmaydi. Natijada milliy turizm faoliyati iqtisodiy rivojlanishning omili emas, balki uning teskarisiga aylanishi mumkin.

Shuningdek, milliy turizm taklif qilayotgan xizmatlari asosan, tarixiy obidalarga sayohat bilan bog‘liq. Bu yurtimizning xalqaro turistlarga taklif qilinayotgan turistik yo‘nalishlarida ham o‘z aksini topgan. O‘zbekistonda 550 ta sayyoqlik kompaniyasi – turoperatorlari faoliyat yuritmoqda, mamlakatimizdagи tarixiy obyektlar, arxitektura va shaharsozlik obidalarining aksariyatini qamrab olgan 110 ta xalqaro sayyoqlik yo‘nalishi bo‘yicha xizmat ko‘rsatilmoqda. Bu yo‘nalishlarning 65 tasi tarixiy-madaniy meros obyektlari, 30 tasi tabiiy-rekreatsion, 15 tasi sog‘lomlashtirish turizmi elementlarini o‘z ichiga olgan ekologik yo‘nalishlardir. Biroq O‘zbekistonning boy tabiatni, iqlimi boshqa turdagи turistik mahsulot va xizmatlarni yaratishga ham imkon beradi. Misol uchun, yurtimizda ekoturizm, chang‘ida uchish, etnik turizm, rafting, tibbiy turizm, safari, biznes turizmi kabi turizmning zamonaviy turlari rivojlanan boshtagan va xalqaro sayyoqlar orasida mashhur bo‘lib bormoqda. Mavjud salohiyatdan to‘liq va samarali foydalanish ham xalqaro, ham ichki turizmning rivojiga ijobjiy ta’sir qiladi<sup>25</sup>.

<sup>25</sup> Jahon banki ma’lumoti: <https://data.worldbank.org/indicator>.

Tadqiqot ishida ikki ssenariy bo'yicha turizm sohasidan olingan daromadlar hajmi va unga ta'sir qiluvchi omillar ko'p omilli statistik tahlil qilinib, ilmiy xulosalar chiqarilgan. Turizmning har tomonlama samaradorligini eng yaxshi aks ettiruvchi ko'rsatkichlarni aniqlash uchun biz 1-ssenariy bo'yicha ta'sir etuvchi omillar sifatida O'zbekistonga kirib kelayotgan turistlar soni –  $X_2$ , turizm sohasiga kiritilayotgan investitsiyalar hajmi –  $X_3$  va aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi real umumiy daromadlar hajmi –  $X_5$  tanlab olindi.

Ajratib olingan asosiy endogen va ekzogen omillarning bog'lanishi asosida turizm sohasidan olinadigan daromadlar hajmining o'zgarish trendlarini aniqlash maqsadida yuqoridagi vaqtli qator ko'rinishidagi ma'lumotlarni Eviews10 dasturidan foydalangan holda tahlil qilindi(9-jadval).

### 9-jadval

#### **1-ssenariy bo'yicha turuzm sohasidan olinadigan daromadlar hajmi o'zgarishining ko'p omilli regressiya tenglamasi va uning mezon natijalari**

Dependent Variable: LNY2				
Method: Least Squares				
Date: 03/13/24 Time: 14:41				
Sample: 2010 2023				
Included observations: 14				
Variable	Coefficient	Std. Error	t-Statistic	Prob.
LNX1	1.159096	0.277256	4.180592	0.0019
LNX4	-1,368237	0,512905	-2,667623	0.0252
LNX6	2.911875	0.793407	3.670088	0.0043
C	3.329044	4.137551	0.804593	0.0398
R-squared	0.801473	Mean dependent var		6.512410
Adjusted R-squared	0.741915	S.D. dependent var		0.748105
S.E. of regression	0.380053	Akaike info criterion		1.137942
Sum squared resid	1.444400	Schwarz criterion		1.320530
Log likelihood	-3.965594	Hannan-Quinn criter.		1.121040
F-statistic	13.45703	Durbin-Watson stat		2.132690
Prob(F-statistic)	0.000763			

Jadval ma'lumotlaridan kelib chiqqan holda quyidagi tenglama hosil qilinadi:

$$LnY_2 = 1.16LnX_1 + 2.91LnX_6 - 1.37LnX_4 + 3.33 \quad (1)$$

Aniqlangan 1-regressiya tenglamasi parametrini t-Statistic mezonlari bo'yicha ahamiyatliligiga e'tibor qaratsak,  $\alpha= 0,05$  bo'lganda  $k=10$  uchun  $t_{jad}=2,22814$  bo'lganligidan jadval natijalariga ko'ra, tanlangan barcha parametrlar ( $t_{x1}=4.1806$ ;  $t_{x4}=-2,6676$ ;  $t_{x6}=3.67 < t_{jad}=2,22814$ )  $t_{x1}>t_{jad}$  shartga ko'ra ahamiyatli ekanligi kelib chiqadi.

Aniqlangan chiziqli logarifmik model' potensiallansa, turizm sohasidan olinadigan daromadlar hajmini ifodalovchi chiziqsiz ko'rinishdagi (2)-ekonometrik

model' kelib chiqadi. Bu tenglamani chiziqliga almashtirish uchun logorifm xossalaridan kelib chiqqan holda potensiallab olinadi va quyidagi tenglama hosil qilinadi: Unga ko'ra:

$$Y_2 = \frac{X_1^{1.16} \cdot X_6^{2.91} \cdot e^{3.33}}{X_4^{1.37}} \quad (2)$$

Hosil qilingan (2)-regressiya tenglamasining haqiqatan ahamiyatliligi  $\alpha=0,05$  va  $k1=3$ ;  $k2=10$  bo'lganda  $F_{Jad}=3,8626$ ga tengligini e'tiborga olgan holda hisoblangan Fisher qiymati  $F_{his}=13.457$  tengligidan  $F_{Jad} < F_{his}$  shartga binoan (3.2)-regressiya tenglamasining ahamiyatliligi hamda  $DW=2.13$  teng bo'lganligi, ya'ni qiymat 2 atrofidaligi bois, avtokorrelyatsiya mavjud emasligidan tenglamaning ishonchli va adekvatligi kelib chiqadi.

O'zbekistonga kirib kelayotgan xorijiy turistlar soni, turizm sohasiga kiritilayotgan investitsiyalar hajmi va aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi real umumiy daromadlar hajmining alohida-alohida har biri 1,0 foizdan oshirilsa, u holda turizm sohasidan olinadigan daromadlar hajmini qo'shimcha mos ravishda 5,8 mlrd.so'm, 1,9 mlrd.so'm va 0,1 mlrd.so'mga oshirish mumkinligi aniqlandi. Bundan ko'rindan, birinchi navbatda, mamlakatimizga tashrif buyuruvchi xorijiy sayyoohlar sonini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Tadqiqotda O'zbekiston Respublikasida turizm sohasidan olinadigan daromadlar hajmining ko'p omilli prognoz ko'rsatkichlari aniqlandi (10-jadval).

#### 10-jadval

#### **1-ssenariy bo'yicha O'zbekiston Respublikasida turizm sohasidan olinadigan daromadlar hajmining ko'p omilli prognoz ko'rsatkichlari**

Yillar	Olinadigan daromad hajmi, mlrd. so'm	Xorijiy turistlar, ming kishi	Kiritilayotgan investitsiya, mlrd. so'm	Aholi jon boshiga real daromad, mln. so'm
2023	754,0	2067	1543,3	18,5
2024	798,6	2159	1655,5	19,9
2025	843,0	2272	1773,8	21,3
2026	887,3	2384	1892,1	22,7
2027	931,5	2496	2010,4	24,1
2028	975,6	2608	2128,7	25,5
2029	1019,7	2721	2247,0	26,9
2030	1063,7	2833	2365,3	28,3

Tahlillarga ko'ra, 2030-yilga borib, mamlakatimizda xorijiy sayyoohlar soni 2833 ming kishini tashkil etib, sohaga kiritilayotgan investitsiyalar hajmi 2365,3 mlrd.so'mni tashkil etsa, u holda sohada daromadlar hajmi 1063,7 mlrd. so'mga yetar ekan. Yuqoridagi omilli bog'lanishlar asosida turizm sohasidan olinadigan daromadlar hajmiga omillar ta'siri asosidagi rivojlanishning 2-ssenariy bo'yicha ekonometrik tahlilni amalga oshirdik. Unga ko'ra, natijaviy omil sifatida O'zbekiston Respublikasida turizm sohasidan olinadigan daromadlar hajmining

o‘zgarishi –  $Y_2$  ga ta’sir etuvchi omillar sifatida sohada yalpi qo‘shilgan qiymat –  $X_1$ , sohadagi tadbirkorlik subyektlari soni –  $X_4$  va aholining o‘rtacha hisoblangan ish haqi –  $X_6$  ko‘rsatkichlar tanlab olindi.

Endi 2-ssenariy bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasidan olinadigan daromadlar hajmining ko‘p omilli prognozini aniqlaymiz(11-jadval).


### 11-jadval

#### **2-ssenariy bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasidan olinadigan daromadlar hajmining ko‘p omilli prognozi**

Yillar	Olinadigan daromad hajmi, mldr. so‘m	Sohada YaQQ, mldr. so‘m	Sohadagi tadbirkorlik subyektlari soni, dona	O‘rtacha oylik ish haqi, ming so‘m
2023	754	2512,9	1854	4,5
2024	786	2472	1910	4,9
2025	816	2383,4	2045	5,2
2026	842	2294,8	2180	5,5
2027	865	2206,2	2315	5,8
2028	884	2117,6	2450	6,1
2029	899	2029,0	2584	6,4
2030	910	1940,4	2719	6,7

O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasidan olinadigan daromadlar hajmining ko‘p omilli prognoziga ko‘ra, 2030-yilga kelib, sohadan olinadigan daromadlar hajmi 910 mldr.so‘mga yetishi kutilmoqda.

Tadqiqotda ko‘rilgan ikki ssenariy bo‘yicha ko‘rsatkichlarning o‘zgarishi dinamikasini grafiklarda vizual ravishda ko‘rsatamiz va aniqroq xulosalar chiqarishga imkoniyat yaratamiz (6-rasm).



**6-rasm. 1 va 2-ssenariy bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasidan olinadigan daromadlar hajmining taqqoslama prognoz tendensiyasi**

Tahlillarimizga ko‘ra, ikkala ssenariy bo‘yicha ham O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasidan olinadigan daromadlar hajmining istiqbolda o‘sish tendensiyasi ijobjiy tavsifga ega bo‘lmoqda.

Tuzilgan trend modellaridan foydalanishda turizm xizmatlari bozorida faoliyat yuritayotgan turizm korxonalarida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish nuqtai nazaridan kiritilayotgan resurslar (ekzogen omillar) hajmini har bir birlik qo‘sishimcha kiritilayotgan resurs birligidan olinadigan samarani hisobga olgan holda belgilash ko‘rsatilayotgan turizm sohasidan olinadigan daromadlar hajmi samaradorligini optimal ta’minlash imkonini beradi hamda turizm korxonalari faoliyatining muvozanatlashgan holda barqaror rivojlanishini ta’minlaydi.

### XULOSA

Tadqiqotda hududiy qishloq xo‘jaligi tarmog‘idagi tarkibiy va tuzilmaviy o‘zgarishlarni statistik baholash, samaradorligini oshirish yo‘nalishlari bo‘yicha quyidagi ilmiy xulosa va takliflarni ishlab chiqildi:

1. Turizmning turli jihatlarini batafsil tahlil qilishda umumlashtirilgan ko‘rsatkichlardan foydalanish maqsadida integral ko‘rsatkichlarni ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Ushbu integral ko‘rsatkichlarni shakllantirishda turar-joy vositalari narxlarining raqobatbardoshligi indeksi, mamlakatning turizm faolligi indeksi, turizm infratuzilmasining rivojlanganligi indeksi, atrof-muhitni muhofaza qilish indeksi, zamonaviy texnologiyalarning rivojlanganligi indeksi, inson resurslari indeksi, ochiqlik indeksi va ijtimoiy holat indeksidan foydalanish tavsiya etildi.

2. Tadqiqot natijasiga ko‘ra, “Mamlakat ichidagi turizm iste’moli” ko‘rsatkichini “Natura shaklidagi ijtimoiy transfertlar”ni qo‘sish hisobiga takomillashtirish tavsiya etildi. Ular davlat organlari va nodavlat notijorat tashkilotlari tomonidan tashrif buyuruvchilarga ko‘rsatiladigan nobozor xizmatlar uchun xarajatlarni o‘z ichiga oladi. Hisob-kitoblar natijasiga ko‘ra ushbu yo‘nalish bo‘yicha amalga oshirilgan turizm xarajatlari 2021-yilda 285,6 mlrd. so‘nni tashkil etganligi aniqlandi va uni O‘zbekiston turizm yordamchi hisobi jadvallarida turizm iste’moli sifatida aks ettirish tavsiya etildi.

3. O‘zbekistonda turistlarni qabul qilish va ularga xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilash, jumladan, aeroport va vokzallarda turistlarni qabul qilish darajasini oshirish, deklaratsiya blankalarini to‘ldirish tartiblarini soddashtirish, turistlarning yuklarini qabul qilish va qaytib berish ishlarini takomillashtirish, mehmonxona nomerlari narxlarini tartibga solish va kamaytirish, sifatli transport xizmatlarini ko‘rsatish va salonlardagi zarur qulayliklarni yaratish, turistlar tashrif buyuradigan joylarning sanitariya-gigiyena holatini yaxshilash, turistlarga xizmat ko‘rsatuvchi personalning etik va estetik, xorijiy tilda so‘zlashish darajasini oshirish.

4. Dunyoning ko‘pgina mamlakatlarida iqtisodiyotda turizmning roli haqidagi

ma'lumotlarning etishmasligi seziladi, shu bilan birga iqtisodiyotning ushbu sektori rivojlanish darjasini va muhimligini ifodalovchi, uning rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish va bu sohada davlat siyosatini olib borish imkonini beruvchi ishonchli statistik ma'lumotlarga ehtiyoj sezilmoqda. An'anaviy turizm statistikasi tabiiy ko'rsatkichlar (tashrif buyuruvchi turistlar soni, mehmonxonalar va ulardagi mavjud o'rinalar soni va boshqalar) asosida shakllantirilar edi. Ammo, bu ko'rsatkichlar mamlakat va hududning iqtisodiy hayotida turizmning o'rni va ahamiyatini aniqlash hamda belgilash imkoniyatini bermaydi. Bu imkoniyatga faqat qiymatli ko'rsatkichlar, shuningdek, milliy hisoblar tizimidagi boshqa tarmoqlar faoliyatini baholashda qo'llaniladigan ko'rsatkichlarni hisoblash uslubiyotiga mos keluvchi ko'rsatkichlarni shakllantirish orqali erishish mumkin. Ushbu maqsadlarda MHT qo'shimcha ravishda yordamchi hisoblarni ishlab chiqishni tavsiya qiladi. Yordamchi hisoblar qandaydir alohida iqtisodiy faoliyatni yoki masalani chuqur va batafsil o'rganishga qaratilgan statistik ko'rsatkichlar to'plamini o'zida aks ettiradi.

5. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi va xalqaro tashkilotlar tavsiyalari shuni ko'rsatadiki, turizm faoliyatini baholashning eng maqbul usuli – turizm yordamchi hisoblarini shakllantirish hisoblanadi. Ushbu hisoblar quyidagi ma'lumotlarni shakllantirish imkonini beradi:

turizm sohasida yaratilgan qo'shilgan qiymat hajmi, shuningdek, uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi, boshqa ko'rsatkichlar bilan aloqadorligi va nisbati;

turist sifatida tashrif buyuruvchilar tomonidan iste'mol qilingan turistik mahsulotlar hajmi va turizm yo'nalishlarida shakllangan talabni baholash (jami turizm faoliyatidan olingan daromadni turizm yo'nalishlari bo'yicha taqsimlagan holda o'lhash);

turistik mahsulotlarga bo'lgan talab va taklif o'rta sidagi aloqadorlik;

turizm va uning turli yo'nalishlaridagi bandlik va yalpi jamg'arilish hamda boshqalar.

6. Tadqiqot ishida xalqaro tavsiyalar va xorijiy davlatlar tajribalaridan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi hududiga kirishga va chiqishga oid turizm tanlanma kuzatuvi savolnomalarining O'zbekiston ichida amalga oshirilgan turizm xarajatlari bandini avtomobil yo'li va boshqa shahar yo'lovchi transporti xizmatlari uchun xarajatlar, temir yo'l yo'lovchi transporti xizmatlari uchun xarajatlar, havo yo'lovchi transporti xizmatlari uchun xarajatlarni qo'shgan holda takomillashtirish zarurligi asoslab berildi.

7. Tadqiqotda Norvegiya, Avstraliya va Finlyandiya davlatlarining hududiy turizm yordamchi hisobini shakllantirish bo'yicha ilg'or tajribalari o'rganib chiqildi va ushbu tajribalarni milliy statistika amaliyotiga joriy etish tavsiya etildi. Mavjud ma'lumotlar manbalarining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, O'zbekiston hududiy turizm yordamchi hisobini "Hududlararo (yuqorida quyiga) yondashuv"

asosida shakllantirish maqsadga muvofiq, deb topildi. Shuningdek, hududga kirib kelgan va hududdan chiqib ketgan turistlarni hisobga olish maqsadida O‘zbekiston uchun “Hududlararo turizm iste’moli matritsasi” ishlab chiqildi va uni hududiy turizm yordamchi hisobini shakllantirishda foydalanish zarurligi asoslab berildi.

8. Tadqiqot ishida xorijiy davlatlar tajribalari asosida mamlakatda turizmning rivojlanish holatini aks ettiruvchi dinamik ko‘rsatkichlar ishlab chiqildi. Unda turizm yordamchi hisobining asosiy ko‘rsatkichlari: to‘g‘ridan-to‘g‘ri turizmda yaratilgan yalpi ichki mahsulot, turizm tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat, to‘g‘ridan-to‘g‘ri turizmda yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat, turizm tarmoqlarining jami ichki taklifi, mamlakat ichidagi turizmga oid iste’mol, kirishga oid turizm iste’moli ko‘rsatkichlari fizik hajm indeksi yordamida ekstrapolyatsiya qilish hamda narx indekslari yordamida deflyatsiya qilish orqali doimiy narxlarda baholash zarurligi asoslandi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/30.01.2021.1.16.03 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ  
УЧЕННОЙ СТЕПЕНИ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ  
ЭКОНОМИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

---

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ  
УНИВЕРСИТЕТ**

**ТОДЖИЕВА МАХЛИЁХОН ДЖАХОНГИР КИЗИ**

**СТАТИСТИЧЕСКАЯ ОЦЕНКА ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ  
СФЕРЫ ТУРИЗМА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН**

**08.00.06 – Эконометрика и статистика**

**АВТОРЕФЕРАТ  
на соискание ученой степени доктора философии (PhD) по экономическим наукам**

**Ташкент - 2024**

**Тема диссертации доктора философии (PhD) по экономическим наукам зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией при Министерстве высшего образования, науки и инноваций за номером В 2021.2.PhD/Iqt1684.**

Диссертация выполнена в Институте подготовки кадров и статистических исследований при Государственном комитете по статистике Республики Узбекистан.

Автореферат диссертации размещён на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) на веб-сайте Научного совета ([www.tsue.uz](http://www.tsue.uz)) и Информационно-научном портале «ZiyoNet» ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)).

**Научный руководитель:**

**Гайибназаров Баходир Каримович**  
доктор экономических наук, профессор

**Официальные оппоненты:**

**Махмудов Носир Махмудович**  
доктор экономических наук, профессор

**Арзикулов Отабек Али угли**  
доктор философии (PhD) по экономическим наукам,  
доцент

**Ведущая организация:**

Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека

Защита диссертации состоится «\_\_\_» \_\_\_\_ 2024 года в \_\_\_ часов на заседании Научного совета DSc.03/30.01.2021.1.16.03 по присуждению ученых степеней при Ташкентском государственном экономическом университете. Адрес: 100066, г. Ташкент, ул. Ислама Каримова, 49. Телефон: (99871) 239 01 49; факс: (99871) 2326992; e-mail: [info@tsue.uz](mailto:info@tsue.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного экономического университета (зарегистрировано под № \_\_\_\_). Адрес: 100066, г. Ташкент, ул. Ислама Каримова, 49. Телефон: (99871) 239 01 49; факс: (99871) 2326992.

Автореферат диссертации разослан «\_\_\_» \_\_\_\_ 2024 года  
(реестр протокола рассылки №\_\_\_\_ от «\_\_\_» \_\_\_\_ 2024 года).

**С.К. Худойкулов**  
Председатель научного совета по  
присуждению ученых степеней, д.э.н.,  
профессор

**Б. Хаджиев**  
Ученый секретарь научного совета по  
присуждению ученых степеней, д.э.н.,  
профессор

**У.В. Гафуров**  
Председатель научного семинара при  
научном совете по присуждению  
ученых степеней, д.э.н., профессор

**ЕДЕНИЕ (аннотация к диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** Индустрия туризма в условиях глобализации, в результате роста доходов населения и расширения возможностей перемещения на международном уровне становится одной из наиболее перспективных отраслей мировой экономики. По статистике Всемирной туристской организации (UNWTO), «туризм занимает третье место по доходности и четвертое по экспорту товаров и услуг; его доля в мировом валовом внутреннем продукте составляет в среднем 10,4 процента».<sup>26</sup> Обеспечение стремительного роста экономического развития туристической сферы за счет эффективного использования его потенциала показывает актуальность мер по совершенствованию методологии статистической оценки этой деятельности.

В мире проводится ряд научных исследований, направленных на развитие туристической отрасли, повышение качества и объема туристических услуг, и вклада в экономику стран. В число приоритетных направлений научных исследований входят: разработка эффективных экономических стратегий туристических компаний; создание механизма повышения их конкурентоспособности на внешних рынках; статистическая оценка и прогнозирование эффективности деятельности; оптимизация системного управления; совершенствование методологии повышения эффективности туристических услуг; статистическая классификация в соответствии с мировыми стандартами стандартизации и повышения качества туристических услуг; вопросы эффективного использования инновационных стратегий.

В Новом Узбекистане вопросам создания благоприятных экономических и организационно-правовых условий для опережающего развития туризма как стратегической отрасли национальной экономики, оценки эффективного использования огромного туристического потенциала регионов с использованием статистических методов, разработки системы статистических показателей, отражающих создание национальной туристической продукции, расширения статистической информационной базы туристической сферы уделяется особое внимание. В частности, в Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы определены такие задачи, как «увеличение экспорта туристических, транспортных, информационных и иных услуг, в том числе услуг программирования, в 1,7 раза, с доведением объемов их экспорта до 4,3 миллиарда долларов США. ... Широкое внедрение в основных туристических городах страны инфраструктуры безбарьерного туризма. Увеличение к 2026 году численности занятого населения в сфере туризма в два раза с доведением их числа до 520 тысяч. ... Развитие инфраструктуры объектов туристического и культурного наследия и принятие государственной программы по эффективному использованию более 8 тысяч объектов культурного наследия».<sup>27</sup> Эффективная реализация этих задач требует проведения научно-исследовательских работ, направленных на совершенствование процессов реальной оценки и контроля доходов,

<sup>26</sup>Данные с официального сайта [www.unwto.org](http://www.unwto.org).

<sup>27</sup> Указ Президента Республики Узбекистан № ПФ-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы» от 28 января 2022 года. [www.lex.uz](http://www.lex.uz).

получаемых на каждом этапе приобретения и потребления туристических услуг путем включения в статистический классификатор продукции (товаров, работ, услуг) по видам экономической деятельности; организацию туристских путешествий, рекреационно-оздоровительных услуг; классификацию системы основных показателей туристического сектора в расширенном виде; разработку системы интегральных показателей, отражающих деятельность, уровень и динамику отрасли; оценку факторов, влияющих на развитие туристической отрасли как стратегического сектора национальной экономики на основе построения эконометрических моделей; разработку прогнозных параметров дополнительного роста доли туризма в ВВП на основе оценки влияния туристической инфраструктуры и объема турпотока на экономический рост.

Исследовательская работа в определенной степени служит реализации задач, поставленных в указах и постановлениях Президента Республики Узбекистан № УП-52 «О создании дополнительных условий для дальнейшего развития сфер туризма, культуры, культурного наследия и спорта» от 15 января 2022 года, № УП-5611 «О дополнительных мерах по ускоренному развитию туризма в Республике Узбекистан» от 5 января 2019 года, № УП-5326 «О дополнительных организационных мерах по созданию благоприятных условий для развития туристского потенциала Республики Узбекистан» от 3 февраля 2018 года, № УП-4861 «О мерах по обеспечению ускоренного развития туристской отрасли Республики Узбекистан» от 2 декабря 2016 года, № ПП-135 «О дополнительных мерах по ускоренному развитию туристского потенциала республики, а также дальнейшему увеличению количества местных и иностранных туристов» от 26 апреля 2023 года, № ПП-3217 «О первоочередных мерах по развитию сферы туризма на 2018-2019 годы» от 16 августа 2017 года и других нормативно-правовых документах, касающихся данной отрасли.

**Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики.** Исследовательская работа выполнена в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологии республики «II. Духовно-нравственное и культурное развитие демократического и правового общества, формирование инновационной экономики».

